

“Ta’lim sifatini nazorat qilish” bo’limi



Bo’lim boshlig’i

Dotsent Ramz Rasuljanovich Abduraupov

Email: edu.control@e-tiame.uz

Telefon: +99871 237 19 45

Bo’lim xaqida

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi 515-son qarorining 14-bandiga muvofiq tashkil etilgan bo’lib, bevosita institut tarkibiga kiradi.

Bo’limning asosiy maqsadi

Ta’lim sifatini nazorat qilish (TSNQ) bo’limining asosiy maqsadi TIQXMMI talabalari bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini o’rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, TIQXMMIning ichki attestatsiyadan o’tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo’yicha ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko’rishdan iborat.

TSNQ bo’limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklarning davlat ta’lim standartlari (DTS), malaka talablari, o’quv rejalari va fan dasturlari bilan ta’minlanganligini tahlil etish va ularni ekspertiza qilish;
- TIQXMMIda ta’lim jarayoni sifatini, uning o’quv adabiyotlari va o’quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlanganlik darajasini o’rganish;
- TIQXMMI talabalari bilimlarining DTSga muvofiqligini o’rganib borish, tahlil qilish;
- ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash;
- kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish;
- TIQXMMIning ichki attestatsiyadan o’tkazishni tashkil etish, natijalari bo’yicha ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ma’lumotlarni TIQXMMI rektoriga hamda Davlat inspeksiyasiga taqdim etish;
- attestatsiya, ta’lim sifatini o’rganish bilan bog’liq jarayonlarda TIQXMMIda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o’z vaqtida bartaraf etilishi ustidan nazorat o’rnatish;
- ta’lim sifatini belgilovchi ko’rsatkichlarning holatini monitoring qilish va aniqlangan muammolar va kamchiliklar yuzasidan tegishli tarkibiy tuzilmalarga takliflar berish;
- ta’lim sifatini oshirish maqsadida professor-o’qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida

zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

- TIQXMMIning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash maqsadida ichki monitoringni o'tkazish, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, aniqlanagan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha TIQXMMI rahbariyatiga takliflar kiritish;
- TIQXMMI professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni TIQXMMI rektoriga ma'lum qilish;
- TIQXMMIning o'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlar rejalarining bajarilishini monitoring qilish;
- ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- TIQXMMI da talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish;
- Davlat inspeksiyasining topshirig'iga binoan oliy ta'lim muassasalar reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;
- talabalar bilimni baholash jarayonini tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, shaffofligini va sifat darajasini baholash;
- TIQXMMI dagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;
- TSNQ bo'limi xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi yoki xalqaro loyihalar va TIQXMMI hisobidan rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli o'quv va ilmiy markazlari tajribasini o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- TIQXMMI reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;
- TIQXMMI tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlari va treninglarni o'tkazish;
- TIQXMMI da jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;
- o'quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion hamkorlik, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarning amaliy tatbig'i masalalari monitoringini yuritish;
- TIQXMMI Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda TSNQ bo'limi tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;
- ta'lim sifati holatini o'rganish natijalariga asoslanib tegishli takliflarni TIQXMMI rahbariyatiga taqdim etish.

Bo'lim hodimlari

Фото	Ф.И.Ш	Лавозими	Телефон рақами	Электрон почта
-------------	--------------	-----------------	-----------------------	-----------------------



Kattakulov Farrux
Sayfullaevich

Bosh
mutaxassis

+99871 237 19
45

farruhk1@gmail.com



Mamatkulov Zokhid
Jonqobilovich

Bosh
mutaxassis

+99871 237 19
42

zohid3095@mail.ru

Aloqa:

Manzil: 100000. Toshkent shahar, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy

Bino/ofis: TIQXMMI, Rektorat binosi, ARM 2- qavat, 13-xona